



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xodjamkulov Umid Negmatovich¹
Xudoyqulova Fazilat Bo'riyevna²

¹ *Pedagogika fanlari doktori, xojamkulov77@mail.ru*

² *TVCHDPI magistranti e-mail: fazilatxudoykulova@gmail.com*

O'QITUVCHI SHAXSINING FIKR ALMASHUV BILAN BOG'LIQ XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchi bilan o'zaro munosabati, o'qituvchilarning o'zaro suhbat va faoliyati jarayonida tarbiyalanuvchi ongiga ta'siretishning o'ziga xos xususiyati, o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining asosiy mohiyati, o'quvchining fikr almashish jarayoni va pedagog o'qituvchining bola ongiga qanday ta'sir etish usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: fikr almashish, kommunikativ qobiliyat, o'quvchini ishontirish, ongga ta'sir qilish, ruhiy ta'sir, g'oyalar va mafkuralar, pedagogik ta'sir ko'rsatish.

Аннотация: в данной статье проанализировано взаимодействие педагога с учеником в процессе обучения, особенности воздействия на сознание ученика в процессе общения и деятельности педагогов, принципиальная сущность коммуникативных способностей учителя, процесс обмена мнениями ученика, способы воздействия педагога на сознание ребенка.

Ключевые слова: обмен идеями, коммуникативные способности, убеждение ученика, воздействие на сознание, психическое воздействие, идеи и идеологии, педагогическое воздействие.

Abstract: this article analyzes the interaction of a teacher with a student in the learning process, the features of the impact on the student's consciousness in the process of communication and the activities of teachers, the fundamental essence of the teacher's communicative abilities, the process of exchanging student opinions, the ways of the teacher's influence on the child's consciousness.

Keywords: exchange of ideas, communication skills, student's belief, influence on consciousness, mental influence, ideas and ideologies, pedagogical influence.

KIRISH

O'qituvchi faoliyatida tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik aloqalarning uzluksizligi tarbiyaning asosiy qonuniyatlaridan biridir. O'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ijobiy aloqalar o'rnatish, ijobiy iqlim yarata olish, o'ziga ishonтира olish va jalb qilish - o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining asosiy mohiyati bo'lib, bunda bevosita o'qituvchi bilan bog'liq bo'lgan minglarcha ruhiy jarayonlar, ma'lum bir qolipdan chiqishi mumkin bo'lmagan muomala turlari va shartlari mavjud. Tarbiyaning samaradorligi, pirovard natijada o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishning shakl va uslublariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Asosiy maqsad, o'qituvchi va o'quvchi munosabatida majburiy itoatkorli ko'rinish ongli intizom egallashi, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. O'qituvchi tarbiya usullari tizimini belgilab olgandan keyin bir qator aloqa o'rnatish vazifalarini rejalashtirishi kerak. Albatta, bu nihoyatda qiyin jarayon, zero, tarbiyaning har bir usuli, tarkibiy qismi va tashkil etuvchi usullari muomala orqali aloqa o'rnatishning samaradorligiga bog'liq. Ushbu jarayon bevosita o'qituvchining fikr almashuvi(refleksiya) bilan bog'liq xususiyatlariga, o'quvchi ruhiy holatini fikr tezligi bilan uqib olish san'atiga va

pedagogik ta'sir ko'rsatishning turi usullarini bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda qo'llay bilishiga taalluqli bo'lib, ular uzluksiz shakllanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Hali maktab bo'lmagan, pedagogik fikr tarkib topmagan davridayoq qabila a'zolarining bolalarda mehnatsevarlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehr-shafqat, insonparvarlik sifatlarini tarkib toptirish sohasidagi aql-idroki va usullari yillar davomida hayot tajribasi va sinovlaridan o'tib, sayqallanib o'sha davrning oliyjanob mevasi sifatida bizning davrimizgacha etib keldi. VII asrlarga kelib O'rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat sohasidagi rivojlanish bevosita ta'lim va tarbiya beruvchi mudarrislarining qizg'in faoliyati hamda ularga qo'yiladigan talablarning nihoyatda rang-barangligi va xilma-xilligi bilan diqqatga sazovordir. Ilk ibtidoiy jamoa va quldorlik davrlaridan boshlab, bolalarning ta'lim va tarbiyasiga javobgar ulamolar hamda mudarrislar nasihat, tushuntirish, ragbatlantirish, maqtash, namuna ko'rsatish, tanbeh berish, ta'qiqlash, majbur qilish, po'pisa qilish, qo'rqitish kabi usullardan foydalanganlar.

Y.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga mexr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va boshqalar.

I.G.Pestalossi o'qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan, uning xalq ta'limi tarmog'ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi.

A.Disterverg o'qituvchining ta'limdagi roliga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o'quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O'qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan. Pedagog olim Djon Lokk o'qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlarini ishlab chiqqan. Ular

orasiga mo‘tadillik, g‘ayrat - shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi xislatlarni kiritib, o‘qituvchining pedagogik faoliyatidagi rolini asarlarida yoritib bergan.

A.I.Gersen, L.N.Tolstoy, I.G.Chernishevskiy, K.D.Ushinskiy kabi rus pedagog olimlari g‘arb mutafakkirlari goyalarining vorislari sifatida mazkur muammolarga o‘z mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, A.I.Gersen mulohazalariga ko‘ra, o‘qituvchining asosiy xislati - bu uning bolalar bilan munosabatda bo‘layotganligini sezishda, bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishida, axloqiy qobiliyatining mavjudligida, chunki u shunday iste’dodga ega bo‘lmog‘i zarurki, unga har qaysi o‘qituvchi erisha olmaydi.

O‘qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari pedagog olim V.A.Slastenin tomonidan ham tadqiq qilingan. U kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, o‘qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanish yo‘nalishi va bunda pedagogik mahorat to‘g‘risida so‘z yuritib, shunday yozadi: “o‘qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, o‘qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘qituvchining fikr almashuvi bilan bog‘liq kommunikativ qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari o‘quvchi ongiga qaratilgan faoliyat bo‘lib, nihoyatda murakkab jarayonda takomillashadi. O‘zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kommunikativ qobiliyatning quyidagi yo‘nalishlari mavjud:

- o‘quvchilarni ishontirish;
- o‘quvchilar ongiga ta’sir etish;
- o‘zgalarga taqlid qilish.

O‘quvchilarni ishontirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchi fikr-mulohazalarini ta’sirchan nutq orqali o‘quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, xatti-harakatiga ta’sir etadi va uni qisman o‘zgartiradi. Ishontirish o‘qituvchining kasb faoliyatiga taalluqli bo‘lgan murakkab faoliyatida asosiy ta’sir ko‘rsatish vositasi bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonida

ishlatiladigan usullardan biri hisoblanadi. O‘quvchi ongiga ta’sir ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan ishontirish usuli o‘qituvchidan bahs, munozara asosida dalillar keltirishni, isbot va mantiqqa tayanishni talab qiladi. Ayniqsa, o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasida o‘rganilayotgan mavzuga taalluqli muqobillik mavjud bo‘lganda, tanqid va fikrlar kurashiga tayanilganda samarali bo‘ladi.

Ishontirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan ekan, o‘qituvchining his-tuyg‘usi, nutqi va ishontira olish san’ati bunda muhim ahamiyatga ega. U pedagogik ta’sir ko‘rsatish usuli sifatida darslarda yangi mavzuni tushuntirishda, o‘quv-tarbiyaviy soatlarda, turli uchrashuvlar va ijodiy suhbatlarda munozaralar shaklida qo‘llaniladi. Tarbiyaviy tadbirlarda ishontirish usuli sinf jamoasi bilan hamda alohida o‘quvchi bilan individual suhbatlar o‘tkazish, siyosiy mavzulardagi darslarda keng qo‘llaniladi. Ishontirish usuli yordamida o‘quvchilarning dunyoqarashi shakllantiriladi. Bu ayniqsa o‘quvchi ongini begona mafkuraviy g‘oyalardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega, ishontirish asosida o‘quvchiga ideal va mustaqil fikrlar qayta quriladi, ularni ba’zi psixik ta’sirlar tufayli sodir bo‘ladigan tushkunlik holatidan asraydi, ularda erkinlikni hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stiradi, o‘ziga va kelajagiga ishonch uyg‘otadi, o‘z-o‘zini tarbiyalashda, mustahkam irodani shakllantirishga undaydi.

O‘quvchilar ongiga ta’sir o‘zaro fikr almashish jarayonida shakllanadigan murakkab psixologik xususiyat bo‘lib, o‘qituvchi kommunikativ qobiliyatining universal omili hisoblanadi. O‘qituvchilarning o‘zaro suhbatlari va faoliyati jarayonida tarbiyalanuvchi ongiga ta’sir etishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o‘quvchilarning psixikasi va xulq-atvoriga sezilarsiz ravishda ta’sir ko‘rsatadi. Ta’sir o‘quvchilar ongiga, psixikasiga nazoratsiz kirib borishi bilan alohida ahamiyatga ega, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatida, xatti–harakatlarida, intilishlarida yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatish tarzida amalga oshiriladi.

Ongga ta’sir shunday bir psixik jarayonki, o‘quvchilar o‘qituvchining yoki biror shaxsning ta’siri ostida, o‘z ongining yetarli nazoratisiz voqelikni idrok etadi. Agar o‘qituvchi bunda pedagogik mahoratga, psixologik tajriba va bilimlarga ega bo‘lmasa, o‘quvchilar ongiga ta’sir qila olmaydi, natijada ta’lim-tarbiya jarayoni

ijobiy natijalar bermaydi o'qituvchi o'quvchilarning hurmat-e'tiboriga sazovor bo'la olmaydi. O'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilari ongini tashqi muhitning salbiy ta'sirlaridan, sinf jamoasi norasmiy yetakchilarining turli yashirin buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishga mas'ul shaxsdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'quvchi ongiga ta'sir o'tkazishda o'qituvchi yetakchilikni o'z qo'lga olishi uchun:

- o'quvchilarning salbiy xatti-harakatlari tufayli sodir bo'ladigan emotsional his-tuyg'ularga berilmasligi;
- har bir o'quvchining psixologik va ruhiy holatini puxta o'rganmasdan uning ongiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga harakat qilmasligi;
- har bir o'quvchiga alohida shaxs sifatida hurmat-e'tibor bilan munosabatda bo'lishi;
- sinf jamoasining norasmiy yetakchisini sezdirmasdan aniqlab olishi va uning xatti-harakatidan doimo ogoh bo'lishi;
- pedagogik mahoratning muhim jihatlarini uzluksiz o'zida takomillashtirib borishi;
- o'ylanmay aytilgan har bir so'z, noo'rin fikr-mulohazaning oqibatini hech qachon tuzatib bo'lmasligini o'qituvchi doimo his etish ilozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda axborot texnologiyalar maydonining nihoyatda kengligi tufayli o'quvchilar ongi tarbiyaga salbiy ta'sir o'tkazuvchi g'oya va mafkuralar bilan band bo'lishi tabiiy hol. O'qituvchilar yosh avlodni tarbiyalashda ongga ta'sir qilishning keng imkoniyatlarini o'z o'rnida qo'llay olsalar, o'quvchilar ongini turli keraksiz g'oyalar va mafkuralardan himoya qila oladilar. Shuni unutmazlik kerakki, o'quvchilar o'zlarining yosh xususiyatlari va psixologik ta'sirga moyilligi tufayli har qanday ta'sirga nihoyatda beriluvchan bo'ladilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'qituvchi shaxsining o'quvchi bilan olib boradigan ta'lim jarayonida muammoli vaziyat tug'ilganda o'qituvchi shaxsining o'quvchi bilan fikr almashuvi bola ongiga qanday ta'sir eta olishida, pedagogik va mafkuraviy ta'sir ko'rsatishidir. Ta'limning maqsadli bo'lishida o'qituvchining fikr almashish, kommunikativ qobiliyat, o'quvchini ishontirish, onga ta'sir qilish, ruhiy ta'sir, g'oyalar va mafkuralar, pedagogik ta'sir ko'rsatishi ko'zda tutilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Usarov J.E. Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency. Theoretical & Applied Science, 2017. 53(9),-p. 79-82.
2. Usarov J.E. Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 2019, June. 15(1), 272-274.
3. Maratov T.G. [Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology](#). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019, 7(8). 16-22.
4. Mukhamedov G.I., Usarov D.E. Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 2020. V.9(3), P.2677-2684.
5. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. - T.:O'qituvchi, 1996.
6. Eshnayev N.J., Maratov T.G'., Mirzaraximova G. [O'zbek milliy kino san'ati va madaniyatida psixoprofilaktik xizmat tizimini joriy etish masalalari](#). Oriental Art and Culture, 2020. 03. 156-165.
7. Eshnayev N.J. (2021). **Ma'naviy-axloqiy muammolarni ilmiy tadqiq etishning o'ziga xos jihatlari**. ACADEMIC research in educational sciences. vol.2, no. 2. p. 364-369.



8. Omonov H.T. (2009). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T.: Iqtisod-moliya.

9. Подласый И.П. (2003). Педагогика. Книга 1. —М.: Владос.

10. Usarov D.E. & Suyarov K.T. (2020). Developing Pupils' Learning and Research Skills on the Basis of Physical Experiments. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(02), 1337-1346.

11. Usarov J.E., Eshnayev N.J. and Haydarova S.A. (2020) “Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6.

12. Usarov J.E., Eshnayev N.J. and Kodirov I.D. (2020) “Problems of formation of learning motives in pupils”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6.